
XALQ DEPUTATLARI BUVAYDA TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 17 - oktabr

VI-51-124-11-154-K/22

Buvayda tuman hokimligi

Buvayda tumanida 2022-yilning III choragi mobaynida jamoatchilik fikri

asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan

mablag'lar hisoboti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi "Byudjet ma'lumotlarining ochiqqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli Qarorlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli Qarori, shu bo'yicha Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashining 2022-yil 7-fevraldagi "Mahalliy budjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi VI-43-21-11-154-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27,29-bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashining 2022-yil 7-fevraldagi "Mahalliy budjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi VI-43-21-11-154-K/22--sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27-bandiga asosan Buvayda tumanida 2022-yilning III choragida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan tuman hokimligi moliya bo'limi mudiri A.Ergashevning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan quyidagilar:

-2022-yilning III choragida "Tashabbusli byudjetlashtirish" jarayoni

natijalari bo'yicha ma'lumotlar 1- va 2-ilovaga muvofiq;

-2022-yilning III choragida "Fuqarolar tashabbusi" jamg'armasi

mablag'larining shakllanishi to'g'risidagi ma'lumotlar 3-ilovaga muvofiq;

-2022-yilning III choragida "Fuqarolar tashabbusi" jamg'armasidan

jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni

moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi moliya bo'limi (A.Ergashev), Tuman hokimligi axborot

xizmati (A.Solieva) Tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlarni

keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda "Ochiq budjet" axborot portali hamda

hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko'ra,

keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari

yuklatilsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman

Kengashining "Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish,

investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha" doimiy

komissiyasi (H.Akbarov), ijrosini ta'minlash moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni

qisqartirish masalalari bo'yicha tuman hokimining birinchi o'rinbosari (D.Mirzahalilov) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi

Odiljonovich I. B.

2022-10-20 11:17:58